

ZULFIYA SHE'RIYATIDA ESTETIK TA'SIR XUSUSIYATLAR

Safarova Hamrooy

Guliston davlat pedagogika inistituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi l-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX-XX asrlarda o'zbek adabiyotida yorqin yulduz porlay boshlagan va u buyuk, iste'dodli shoira, davlat arbobi, jamoat arbobi, tarjimon va jurnalist sifatida tanilgan Zulfiya Isroilova hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar hamda uning she'riyatidagi polisemantik estetik xususiyatlar hamohangligi, ma'no mazmun hamohangligi, uning poetikasi haqidagi fikr ilgari surilgan. Bundan tashqari, Zulfiya Isroilova va uning poetikasi, lirikasi haqida uning zamondoshlari, ustozlari, shogirdlari va adabiy tanqidchilar tomonidan bildirgan fikrlar mujassam.

Annotation: in this article, a bright star began to shine in Uzbek literature in the 20th and 19th centuries, and the opinion about the life and work of Zulfiya Israilova, known as a great, talented poet, statesman, public figure, translator and journalist, as well as about the coherence of polysemantic aesthetic characteristics in her poetry, the coherence of meaning In addition, Zulfiya Israilova and her poetics, lyrics are embodied in the opinions expressed by her contemporaries, teachers, students and literary critics.

Kalit so'zlar: Sadoqat,vafo, ruhiy olam,sog'inch,hijron, ifoda usuli, tabiat va jamiyat, hamjihatlik,xalq g'ami, nozik misra, funksional bo'yoq.

Keywords: loyalty, fidelity, spiritual world, longing, hijra, mode of expression, nature and society, harmony, folk grief, delicate verse, functional paint.

Kirish. Zulfiya Isroilova shoira, tarjimon, jamoat arbobi va Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda she'riyati malikasi hamdir. Zulfiya Isroilova o'zbek she'riyatida o'z o'rni,o'z muxlisiga, o'z shogirdi, qalb qo'riga ega bo'lgan shoiradir. Onalarni ta'riflash mushkul ish bo'lgani kabi, o'zbek onasi bo'lmish Zulfiyaxonimni ta'riflash, uning ijodini baholash mushkul ishlardandir. U shunchaki shoira emas, balki o'zbek poetikasining yuksak namoyondasidir.

Shoirlarni xalq qalbining tarjimonidir, uning eng sof, ezgu ideallari, orzu-intilishlarning ifodachisi, xalq xotirasi deb aytishadi. Xalq xotirasidan nafaqat qalbidan chuqur joy egallagan o'zbek shoirasi, o'zbek adabiyotida yorqin yulduz bo'lib porlagan shoira Zulfiya Isroilovadir. Zulfiya Isroilovaning hayot yo'li barchamizga ma'lum. Ammo uning ijodini ko'r-ko'rona sirtdan ko'ra bilamiz. Zulfiya va uning she'riyati haqida „Shoira she'rlarida, asarlarida ayol qalbini ulkan baxt, farovon turmush, yer yuzida tinchlik uchun kurash yo'lidagi kechinmalariga boy ekanligini ko'ramiz" deya ta'kidlagan edi Komil Yashin¹.

Asosiy qism. O'ttizinchi yillarning birinchi yarmidan ijod qozoniga qaynay boshlagan Zulfiyaning poetik ovozi tobora baland va baralla ko'tarila borgan. Zulfiya bu poetik

¹ Ehtirom" -Toshkent „O'zbekiston" -1995. 11bet

faoliyatini do'sti hamda turmush o'rtogi Hamid Olimjon bilan birlgilikda boshlagan. Uning poetikasi estetikasidan shuni anglashimiz mumkin ya'ni she'rilaridagi ma'no-mazmun, xalq ayollarining dardi, qalbidagi sevgisi-yu sadoqati, vafosi shoira estetikasini ochib bergen. Zulfiya she'riyatini, she'rularini o'qir ekanmiz, undagi qandaydir qudrat inson qalbini chulg'ab oladi, o'ylantiradi va mahzun ham etadi. Zulfiya Isroilova she'riyati shu qadar boyki, uning asarlari haqida, shoiraning o'zi haqida ham mumtoz adabiyotimiz namoyandalari: Asqad Muxtor, Oybek, G'ofur G'ulom, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlar hamda qardosh bo'lgan adabiy tanqidchilar, yozuvchilar Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatovlar ham shoira ijodidagi estetikasiga alohida baho bergenlar, qarashlarini bayon etganlar. Jumladan, Erkin Vohidov shunday fikr bildirgan. „Zulfiyani shoir qilgan o'zining dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiya va ehtirosli nidosi. Ulug'lardan biri aytgan ekan: „Shoirni iztirob yaratadi va bu iztirob she'riyat uchun quvonch bo'ladi". Bu so'zlar bus-butun shoira Zulfiyaga taalluqlidir. Shoirani dunyoga keltirgan buyuk iztirob o'z aksiyati bo'lgan buyuk baxtni ham yaratdi. Bu ulug' baxt to'la-to'kis xalq va she'riyatnikidir²" Darhaqiqat, Zulfiyaning iztirobi turmush o'rtogidan erta judo bo'lgani, hayot yo'lining yarmida farzandlar bilan yolg'iz qolganligi bo'ldi. Ammo bu iztiroblar uning musibati bo'lsa-da, unga katta shuhrat keltirgan ham aynan usha iztirobidir. Bu iztiroblar, dardlar shifosi esa avvalo uning iste'dodi, so'ng ustozlari-yu shogirdlari hamda uning xalqi bo'ldi. Uni bu zulmatdan qutqarguvchi uning sabr matonati bo'ldi. U dard-alamini, qayg'u-iztirobini, chiroqsiz qolgan ko'ngil ko'chasini, undagi hissiyotlarni barini o'z she'rlerida tasvirladi. „Ijodkor o'z ichki dunyosini yozgan asari-yu, she'rlerida namoyon etadi", deyishadi. Bu gapning isboti ham Zulfiya she'rleridadir. Shoiraning „Sensiz" she'ridan olingan parchani o'qir ekanmiz, unda qog'ozga to'kilgan dur kabi ko'z yoshlarini, qalbni qon qiluvchi satrlarga duch kelamiz:

Shundan beri tikman, har nega qalqon
Baxtga, bahorga ham, qishga qayg'uga.
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga³.

Munozara bo'limi: Shoiraning mazkur she'ridan uning har nega qalqon bo'lishga undovchi motiv vazifasini ayol sabri bajargani, azaga borsa-yu, o'z yarasi yangilanib qon bo'lishi, va shodiyona, xurramlik kuni esa baxtdan sarmast insondek ko'rinishi bu ayol sabri, Ijodkor matonati deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. She'rning uchinchi baytiga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, unga faqat kitobxon sifatida emas, balki adabiyot shaydosi, Ijodkor dunyosi sifatida qaralsa, uning Hamid Olimjondan keyingi hayoti rangsiz, yuragidagi yarasi bitiksiz haligacha qonab turgani, ammo buni yashirishga urinayotganini tushunamiz va albatta to'rtinchi misra bu vazifani bajardi. Hatto shoiraning o'zi ham o'z she'rleri haqida shunday deydi: "Mening shunday sherlarim borki, ularni o'qisam o'zimga

² . "Ehtirom"-Toshkent "O'zbekiston"-1995. 43bet

³ "Bahor keldi seni so'roqlab" - Toshkent (nashriyoti bn yilini topolmadm)

achinib ketaman, (ularni hech kimga ko'rsatganim ham yo'q. Ishlarman keyin e'lon qilarman).⁴"

O'ziga achingan, dardi ichiga sig'may uni qog'ozga to'kkan shoira she'rlari har bir adabiyot ixlosmandlarini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Shoira she'rlarida mazmuniy hamohanglik, polisemantik hamohanglik estetik ta'siri she'r bilan she'riyat bilan hamnafas bo'lishga chorlaydi.

Zulfiya Isroilova she'rlarida faqat ayol sabri, bardoshi, iztirobi tasvirlanmagan unga estetik ta'sir xususiyatini baxt, shodlik, xurramlik, shukronalik, mammuniyat tuyg'ulari namoyon qilgan.

Yashash aziz hissi tanda kezganda,
Umr ko'pi kechib, armon dilni ezganda
Hatto o'zni xasta, zaif sezganda,
Og'ir, benaf o'ydan yurak bezganda
Seni kuylayman hayot!

Endi uni shoira, tarjimon, jamoat arbobi sifatida emas balki, ona sifatida tasvirlaymiz. Uning ham ona sifatida vazifasi, majburiyati bordir.

Natijalar bo'limi: U o'zbek ayoli sifatida matonat sohibasi sifatida ko'ra olamiz. Uni baxt osmonida parvozi paytida qanotsiz qolishi, ming mashaqqat-la oyoqqa turib, yana hayotga kulib boqishi, hayotni kuylay olishi buning isbotidir. Ta'kidlab o'tish joizki, Zulfiya barcha dardini insonlardan yaqinlaridan ko'ra ko'proq qalamiga aytgan, hijron qiyognog'i-yu, iztirobi va sog'inchini she'rlariga to'kdi.

Zulfiya she'rlaridagi bosh estetik xususiyat mavzusi bu - bahor. She'rlarini o'qir ekanmiz bahor va unga bo'lgan muhabbatini rassom singari tasvirlagan. Bunday kuchli fikr, qarash, ijod va hayotga bo'lgan muhabbat tasavvurlari albatta yillar zahmati, yillar sog'inchi asosida shakllana borgan. Bu haqida munaqqidlar va adiblar Zulfiya va she'riyatiga turli ta'riflar bergenlar. Jumladan, uning 1945-yilda yozilgan „ Bahor keldi seni so'roqlab " :

Hijroning qo'limda, sozing qo'limda
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

she'ri haqida rus shoirasi Vera Inver shunday deydi: "Bu qadar og'ir musibatdan so'ng bir yil o'tib shunday umidbaxsh satrlarni bitish uchun qancha qudrat kerak"⁵. Darhaçiqat, Zulfiyaning qudrati bu uning sevgisidir. Uning xalqiga bo'lgan sevgisi, ijodga, adabiyotga bo'lgan sevgisi va farzandiga bo'lgan sevgisi uni ulkan matonat sohibasiga aylantirdi.

Zulfiyaning yana bir she'ridagi estetik ta'sirini, emotsional xususiyatlarini uning „ Sen qaydasan, Yuragim " she'ri tahlilida ko'rib chiqamiz.

Qalb bo'lganda yiroqda
Iroda ekan ojiz.
Do'stlar ham ko'p atrofda

⁴ "Ehtirom" -Toshkent- "O'zbekiston"-1995. 30 bet

⁵ "Ehtirom" -Toshkent- "O'zbekiston"-1995. 44 bet

Ammo men yakka yolg'iz.
Birdan qalbim keksarib,
Qon ham qochdi yuzimdan.
Sen, sirdoshni axtarib,
Xayol ketar izingdan.

Mazkur jumlalarni o'qir ekanmiz, mohiyatini anglab borar ekanmiz, shoira hayotida eng qora kuni ko'z oldimizda gavdalanadi. Shoira yozishicha qalb birdan keksaydi, dunyoga sig'madi, yuzidan qon qochdi atrofni kuzatdi ammo endi u o'z Hamid Olimjonini topa olmadi. Unga bo'lgan sevgisi shu qadar kuchli ediki, har bir she'rida Hamid Olimjon tasvirlangan. Uning vafotidan so'ng, sochlar xuddi barqut singari oppoq bo'lishi, yuzidan kulgu, qalbidan xotirjamlik, hayotidan esa bir buyuk siymo yo'q bo'lishi uning deyarli barcha she'rida o'z aksini topgan.

Xulosa: Bu o'rniда shuni aytishim mumkinki, Zulfiya Isroilova ismi qulog'im ostida yangrasa, ko'z oldimda Sharof Boshbekovning „Temir xotin“ asaridagi Alomat gavdalanar edi. Ushbu maqolani yozish jarayonida shuni bildimki, hatto temir ham o'zbek ayoliga teng kelmas ekan. Matonat sabr va kuchli qudrat faqat o'zbek ayoli, o'zbek onasida, o'zbek Zulfiyalarida o'z aksini topar ekan. Ulkan iste'dod egasi, bahor kuychisi, sevgi, sabr ko'zgusi hamda Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda, she'riyat malikasi sifatida qalblarimizdan mangu o'rin egallagan o'zbek Zulfiyasidir.

"Shoiram — mening mushoiram"
Oftob ziyoсидан munavvar olam,
Nurga intiladi tashna nigohlar.
Iqbolidan mammun, baxtiyor odam,
Chapak chalib qutlar gullar, giyohlar.
Gulgun saodatim sizsiz, shoiram!
N.Narzullayev.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Turkiy adabiyot durdonalari" - "O'zbekiston" - Toshkent-2022
2. " Bahor keldi seni so'roqlab " Toshkent.
- 3."Ehtirom" - " O'zbekiston " - Toshkent 1995
4. Zulfiya haqida zamondoshlari- Darakchi.uz